

Qonun bilan boshqarilamizmi, huquq bilanmi?

Durust jamiyatning eng muhim belgilaridan unda huquq ustivor ekanligidir (Rule of Law). Huquq ustivorligi tamoyili jamiyat va davlat qanday qonun-qoidalarga ko'ra yashashini belgilaydi. Bu tamoyilga rioya qilinganda, jamiyatda o'yin qoidalari borasida mavhumlik kamayadi, shaxs va tashkilotlar uzoqni ko'zlab ish tuta oladi va o'zini xavfsizlikda his etadi. Barcha uchun bir hil va shaffof shartlar odamlarda o'zaro va davlatga ishonchni ham orttiradi.

Bizda esa huquq emas, qonun ustivor. Bu, qonunchilik barcha uchun majburiy qoidalar yig'indisidan jamiyat ustidan (manfur) boshqaruvni amalga oshirish instrumentiga aylandi deganidir. Bunday yondashuvda huquqiy normalar vaziyatga va odamga qarab qo'llaniladi. Bu esa o'z navbatida ijro va sud hokimiyatiga rasman yoki norasman ta'sir qilish imkoniga ega bo'lgan guruhlarga ulkan ustunlik (va boylik) beradi. Bunday holat institutlari hali shakllanmagan yoki zaif bo'lgan davlatlarga xosdir: davlatni «o'ziniki qilib olgan» elitalar rasmiy insitutlarga hokimiyatni bergisi kelmaganda yoki berolmaganda, norasmiy o'yin qoidalari keng yoyiladi, shularga amal qilinadi.

O'zbekistonda buni ko'p sohalarda ko'rishimiz mumkin. Hech kimga sir emas, qurilish, davlat mulkini hususiyashtirish yoki moliyadan tortib «diniy ekstremizmga qarshi kurashgacha» bo'lgan sohalarda talaygina huquqiy normalar shaxs va vaziyatga qarab qo'llaniladi (yoki, qo'llanishi shart bo'lgan bir paytda, aksincha, ko'z yumiladi).

Huquq emas, qonun orqali boshqarish davlat boshqaruvi sifatini yomonlashtiradi, milliy hamjihatlikka rahna soladi hamda ko'pgina boshqa, biznes muhitning yomonlashuvi yoki aqllar hijrati kabi salbiy

oqibatlariga olib keladi. Odamlar na shaxsan, na iqtisodiy yoki ijtimoiy, siyosiy nuqtai nazardan o'zini omon, himoyalangan deb biladi. Zulm va u bilan bog'liq bo'lgan beqarorlik avjiga chiqadi. Ayni damda, huquq, adolat bilan bog'liq tushunchalar tobora ahamiyatini yoqotib, odamlar qonun-qoida bo'yicha emas, «ponyatkalar» bilan yashay boshlaydi, samosudlar ko'payadi. Siyosat ham «chechenlashtiriladi» (bedarak yoqolishlar, kuchlidan, nohaq bo'lsa, ham uzr so'rashlar).

Eng yomoni, qonun bilan boshqarish natijasida muayyan muammoni hal qilish uchun qabul qilingan huquqiy normalar keyinchalik «o'zining hayoti» bilan yashab ketadi. Odatda o'z hayoti bilan yashab ketadigan normalar muxoliflariga qarshi yoki biznes manfaatlarni himoya qilish uchun qabul qilingan jazolovchi normalar bo'ladi.

Masalan, barcha diniy mazmundagi materiallarga avvaldan ruxsat olish aksilkonstitutsiyaviy talabini olaylik. Bu chora diniy ekstremizmni oldini olish, profilaktikasi maqsadida kiritilgan, hammaga ham qarshi qo'llanmasligi kerak edi. Shunchaki, «ramkasidan chiqib ketgan» dindor (asosan, musulmon) faollarni qo'rqitib, tiyib turish uchun qo'llanishi kerak edi. Lekin bu norma keyinchalik o'z hayoti bilan yashab ketdi, endi joylardagi «siloviklar» ham (muddatidan oldin rutba olish kabi) o'z tor manfaatida qo'llayapti, unga asoslanib qatag'on qilinganlar soni ko'paymoqda.

Ya'ni, bu normani suiste'mol qilish boshlandimi, endi u asl maqsadiga (davlatning sekulyarligini saqlab turishga) qarshi ishlayapti. Bu norma sekulyar rejimni qo'llab-quvvatlovchi faktordan uning barqarorligi va legitimligiga salbiy ta'sir qiluvchi faktorga aylandi. Bu faqatgina bittagina huquqiy normaga misol edi, bunday normalar talaygina.

Yechim qonunlar ustivorligi emas, huquq ustivorligiga o'tishda. Bu o'tish borasida ham dunyoda katta tajriba yig'ilgan, velosipedni qayta ixtiro qilish shart emas. Afsus, garchi bu o'zining manfaatida ham bo'lsa-da (Gulnora Karimovaning qudratni yoqotgandan keyingi ahvolini eslang), hukmron elita bu haqida hozircha o'ylamayapti, chunki manfaatdor emas.

Demak, huquq ustivorligi jamiyatga kerak, uning zimmasida. Huquqiylik, huquq ustivorligi boshqa, "ajratuvchi" mafkuralardan farqli o'laroq, jamiyatni birlashtiruvchi o'ziga xos meta-mafkura sifatida xizmat qilishi mumkin.

«O'zingiz yozgan Konstitutsiyangizga o'zingiz ham amal qiling» talabi ham dindor, ham ateist, ham kambag'al, ham boy, ham davlat xizmatchisi, ham ishsizga yoki tadbirkorga birdek jozibador bo'lsa kerak.

Xullas, mana shu yo'l orqali turli firqalarga bo'lingan jamiyatimiz birlashishi mumkin.

Diktatura bo'lsa, huquq diktaturasi bo'lsin.

Sardor Salim